



## YEVROPA MUSIQASIDA IMPRESSIONIZM

*Termiz davlat pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti, Musiqa ta'limi yo`nalishi, 3-bosqich talabasi*

*Shirinoy Xaydarova*

*Ilmiy rahbar: **Raxmatullayev Xumoyun Shafaatovich** Termiz davlat pedagogika instituti, Musiqa madaniyati va mahorati kafedrasi katta o'qituvchisi, dots.v.b.*

Impressionizm G'arbiy Yevropa san'atida XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida paydo bo'lган оqим bo'lib avval tasviriy san'atda, keyin esa she'riyat va musiqada rivojlandi. «Impressionizm» so'zi frantsuzcha bo'lib, «taassurot» degan ma'noni bildiradi. Borliqdan, atrof muhitdan olingen taasurotni bir lahzali o'tkinchi lavhalarda, bir-birini almashtirib turadigan obrazlarda tasvirlashga intilish – bu ijodiy uslubning asosidir.

Impressionizm uslubi dastlab frantsuz rassomlari Eduard Mane, Klod Mone, Ogyust Renuar, Edgar Dega, Kamil Pisarro asarlarida namoyon bo'ldi. Musiqa san'atida esa impressionizm frantsuz kompozitorlari Klod Debyussi va Moris Ravel ijodida qaror topdi. Bu kompozitorlar butun hayotiy va ijodiy yo'li davomida doimiy izlanish, yangi mavzu va syujetlar, yangi musiqa ifoda vositalarini izlab topish bilan shug'ullandilar.

Impressionist rassomlar va kompozitorlar ijodida umumiyl mavzular paydo bo'ldi. Ular o'z asarlarida turli hayotiy sahnalar va epizodlar, kishilarning portretlari va ayniqsa peyzajlarni tasvirlashga katta e'tibor berdilar. Shuningdek badiiy uslubda ham umumiylklar sezildi. Imperessionist rassomlar ham kompozitorlar ham hodisadan olingen eng birinchi, ilk taasurotni asarlarida ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Shuning uchun bu ijodkorlar yirik shaklli asarlar emas, asosan kichik shaklli asarlar - miniatyuralar yaratganlar. Racsomlar yirik kompoziciyalar o'rniga portret va etyudlar chizganlar. Kompozitorlar esa simfoniya va operalar o'rniga fortepiano va orkestr ijrosi uchun kichik xajmdagi asarlar yozdilar. Chunki eng dastlabki taasurotni ifodalab berish uchun yirik asarlar yozish shart emas. Debyussi va Ravel yangi musiqiy



obrazlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan yangi musiqa ifoda vositalarini qidirib topdilar. Bunda ular musiqaning rang-barang, go'zal va bejirim bo'lishiga hizmat qiladigan vositalarga alohida e'tibor berdilar. Lad, garmoniya metr va ritm, cholg'ulashtirish kabi ifoda vositalarini o'ziga xos va boshqacha bo'lishiga erishdilar. Kuy (melodiya)ning asosiy ifoda vositasi sifatidagi mavqeい pasaydi. Uning o'rniga kompozitorlar turli ladlar – pentatonika, xalq\_musiqasi ladlaridan doriya, frigiya, miksolidiya va boshqalarni, xususan butun tonli gammani ko'p qo'lladilar. Klassik garmoniya vaakkordlar o'rniga ko'proq tovush brikmalaridan foydalanish ham impressionistik musiqaga o'ziga xos xususiyat bag'ishladi.

Impressionist kompozitorlar musiqaning programmalilik xususiyatiga katta e'tibor berdilar. Chunki dastursiz bunday asarlarni tinglovchi tushunishi qiyin. Debyussi va Ravel o'z ijodida tarixiy, qahramonlik va ijtimoiy mavzularga deyarli e'tibor bermaganlar. Aytib o'tilganidek musiqiy peyzaj, hayotiy manzaralar va musiqiy portret ular ijodidagi asosiy mavzulardir. Ertak va afsonalarga ham kam e'tibor bergenlar. Bu kompozitorlar asarlarida insonning tabiiy kechinmalari, ba'zan dramatik va fojiali, ko'proq quvonchli tomonlari aks ettirilgan. Shuningdek ko'p asarlar tinglovchiga tabiatning go'zal obrazlari va dunyosini yangidan ochib beradi. Ifoda vositalarini yangiligi, go'zalligi va o'ziga xosligi buning asosiy sababidir.

Yetuk Impressionizm asarlari yorqinligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Impressionizm xususiyatlari neoimpressionizm va postimpressionizmda taraqqiy etdi. Amerikada J. Uistler, Germaniyada M. Liberman, L. Korint, Rossiyada K. A. Korovin, I. E. Grabar va b. ijodi Impressionizm rivojiga hissa bo'lib qo'shildi. 1880— 1910 y.larda Impressionizm ko'p rassomlar ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu vo-qelikni yangi tomonlarini o'zlashtirishda, plener usullarini egallahda namoyon bo'ldi. Impressionizm qoidalari haykaltaroshlikda turli darajada o'z aksini topdi. Haykaltaroshlardan fransuz O. Roden, italiyalik M. Rosso, rus P. P. Trubetskiy, A. Golubkina va b. o'z asarlarida harakatni, harakat paytida shakl o'zgarishlarini ifoda etdilar.



Impressionist rassomlar ijodi o‘zbek rangtasvir san’ati rivojida ham o‘z ifodasini topdi. O‘zbekistonlik rassomlar L.Bure, O.Tatevosyan, P.Benkov, Z. Kovalevskaya, A. Mirsoatov va boshqalar ijodida shu ta’sir seziladi.

Musiqada — Impressionizm Fransiya kompozitorlari ijodida 1880—90 yillarda paydo bo‘lgan (K. Debyussi, keyinchalik M. Ravel, P. Dyuka va b.). 20-asr boshidan Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham tarqalgan (Ispaniyada M.de Falya, Italiyada O. Respigi, A. Kazel-la, Polshada K. Shimanovskiy va b.). Musiqiy Impressionizmga tabiat manzaralari, tashqi dunyo hodisalarini kuzatish jarayo-nida yuzaga kelgan histuyg‘ularni, nozik ruhiy holatlarni aks ettirish xosdir. Asarlar tembr va garmoniyaning rang-barangligi, shakl rivojining erkinligi, ritmikasining beqarorligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotda — Impressionizmning bir necha uslubiy yo‘nalishlari kuzatiladi. "Psixologik Impressionizm" yo‘nalishida yaratilgan asarlar, ayniqsa, mashhur. Garchi bu yo‘nalishning asoschilarini aka-uka Gonkurlar hisoblansada, yangicha shakldagi ruxiy taxlillarga boy asarlarni K. Gamsun, T. Mann, S. Sveyg , ayniq-sa, M. Prust ijodida ko‘plab uchratish mumkin.

20-asr o‘rtalariga kelib I. uslub sifatida o‘z umrini tugatgan bo‘lsada, turli mamlakatlar ijodkorlari orasida bu yo‘nalishda asarlar yaratayetgan yoxud ijodiy evolyusiyasining muayyan bosqichida unga ergashgan yozuvchilar topiladi. Xususan, o‘zbek adiblaridan X. Do‘stmuhammad ("Ko‘z qorachig‘idagi uy", "Jajman" va b.), N. Eshonqul ("Maymun yetaklagan odam" va b.) ijodida shu yo‘nalishning ta’siri seziladi.

Impressionist rassomlar ijodi o‘zbek rangtasvir san’ati rivojida ham o‘z ifodasini topdi. O‘zbekistonlik rassomlar L. Bure, O. Tatevosyan, P. Benkov, Z. Kovalevskaya, A. Mirsoatov va b. ijodida shu ta’sir seziladi.

### **Musiqiy impressionism**

Musiqiy impressionizm go‘zal impressionizm kursi asosida rivojlandi. An'anaga ko‘ra, Klod Debussi va Mauris Ravel musiqadagi impressionizm vakillari hisoblanadi.

Impressionist bastakorlarning musiqasida asosiy narsa kayfiyatni almashtirish, ramzlarning ma’nosiga ega bo‘lish, tashqi dunyo haqida o‘ylash natijasida yuzaga



kelgan nozik psixologik holatlarni belgilash edi. Musiqiy impressionizm, shuningdek, ramziy shoirlarning san'atiga yaqin edi, uning "samarasiz" kulti.

O'n to'qqizinchi asr oxirlarida musiqa tanqidchilari tomonidan ishlataligan "impressionizm" atamasi. sud yoki istehzo ma'nosida, keyinchalik umumiy qabul qilingan ta'rifga aylandi va o'n to'qqizinchi va yigirmanchi asr boshlarida musiqiy hodisalarini keng qamrab olishga kirishdi. Frantsiyada ham, Evropaning boshqa mamlakatlarida ham.

### **Adabiyotlar:**

1. Martinov I. Istorya zapadnoevropeyskoy muziki. Tom 5. M. 1963.
2. Levik B. Muzikalnaya literatura zarubejnih stran. Ch 5. M. 1975.
3. G. V. Keldish bosh muharrirligida — Musiqiy ensiklopedik lug'at. Moskva: «Sovet ensiklopediyasi», 1990.
4. Raxmatullaev, X. S. (2023). Musiqanining kashf qilinishi haqidagi nazariyalar. tarixgacha bolgan davr. Solution of social problems in management and economy, 2(4), 70-75.
5. M. Jherar va R. Shalyu tomonidan tuzilgan — Ravel o'z maktublari oynasida. Leningrad: «Musiqa», 1988.
6. G. Shneerson — XX asr fransuz musiqasi, 2-nashri. Moskva, 1970.
7. Erik Sati, Yuriy Xanon — Orqaga qarab eslashlar. Sankt-Peterburg: O'rta Musiqa Markazi va «Rossiya Obrazlari» nashriyoti, 2010. — 682 bet. — ISBN 978-5-87417-338-8.
8. Vinsent d'Indi — Richard Wagner va uning fransuz musiqiy san'atiga ta'siri. Parij, 1930.
9. Erik Sati — Asarlar («Écrits»). Parij: Champ Libre nashriyoti, 1977.
10. Ann Rey — Sati. Parij: Seuil nashriyoti, 1995.
11. Ornella Volta — Erik Sati. Parij: Hazan nashriyoti, 1997.
12. Emil Vuillermoz — Klod Debyussi. Jeneva, 1957.